

HUQUQIY SOHADA FAOLIYAT YURITUVCHI AYOLLAR MUAMMOLARI

Axmedova Shaxnoza Asatullaevna

Guliston Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi(huquq ta’limi) yo‘nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya :Ushbu maqolada huquqiy sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarning muammolari ularni bartaraf etish uchun davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar xotin qizlar mehnat huquqining kafolatlari bo‘yicha davlat siyosati va xalqaro hamkorlik , co‘nggi yillarda yurisprudensiya sohasida etuk va malakali mutaxassislarni tayyorlash yo‘nalishida hayotga tatbiq etilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar fonida iqtidorli yoshlarni tanlab olish va kasbga o‘qitishning yangi, zamonaviy mexanizmlari joriy etilganini alohida ta’kidlash, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yoshlar orasida esa, qizlar ulushi ham oshib borayotgani hamda ayollarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok taminlash masalariga etibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Ayollarning jamiyatdagi o‘rni,harakatlar strategiyasi, “Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi, mintaqaviy muloqot, Liza Grant, ayollar mehnat faoliyatida oilaviy ko‘mak,

Ayollarsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular jamiyatning etakchi kuchlari, mohir va uddaburon murabbiylari, mehribon va oqila tarbiyachilaridir.

Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga etkazish oilaviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Oiladagi o‘g‘il-qizlarimizning qanday insonlar bo‘lib etishishi hammadan burun ayollarimizga bog‘liqdir.

Darhaqiqat, davlatimiz xotin-qizlarga katta e’tibor bermoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratilmoqda. Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabatda o‘zining tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmatli va izzatli munosabatda bo‘lishga da’vat etishgan.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor vazifalari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining IV yo‘nalishidagi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda ham xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda qator vazifalar belgilangan. Aynan qonun oldida barcha barobar ekani, bu tushuncha gender masalasini ham to‘la qamrab olgani xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijalarida to‘la aks etadi. Xususan, davlat rahbari qarori ijrosi doirasida ishlab chiqilayotgan “Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi, “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarni yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

buning yana bir tasdig'i ekanligini ma'lum qildi. Bu boradagi milliy qonunchilikning takomillashtirilishi, umume'tirof etilgan normalarni o'zida aks ettirishi boshqa sohalar qatori yurisprudensiyaga hayotini bag'ishlagan ayollar uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi ayollarimizga bo'lgan imkoniyatlarni yanada yuksalishiga sababchi bo'ldi.

2019 yil 12 aprelda "Taraqqiyot strategiyasi" Markazining "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Huquqiy sohada faoliyat yurituvchi ayollar muammolarini bartaraf etish" mavzusidagi seminar o'tkazilishi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

O'tkazilgan tadbirda seminar yakunlari bo'yicha jamoatchilik muhokamasida Boston munisipial sudining Dorchester bo'limi sudyasi Liza Grant, iste'fodagi okrug bosh prokurori Pem Andersen (AQSh), oila va nikoh masalalari bo'yicha ekspert, "Family Resources of Greater Nebraska" tashkiloti asoschisi Shon Emerton hamda "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkilotining huquq bo'yicha mutaxassisi Anna Guardanolar ham qatnashib, mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bildirishdi.

Ushbu muhokamada Boston munisipial sudining Dorchester bo'limi sudyasi Liza Grantning "O'zbekistondagi yuristlarning aytishicha, huquq sohasida ishlayotgan xotin-qizlar o'z oilasidan alohida ko'mak olarkan. Masalan, bolali ayol farzandini qaynonasi qaramog'ida qoldirib ishlayveradi. AQShda bunday tizim yo'q. Hamkasblarimiz bilan ishi va oilasi o'rtasidagi muvozanatni saqlash kerakligi haqida muloqot qildik. Seminar ishtirokchilariga tajribalarimizni o'rgatish asnosida ulardan ham o'zimiz uchun muhim bo'lgan masalalarni o'zlashtirdik" deya bildirgan fikrlaridan huquq sohasida ishlayotgan xotin-qizlarimizning yurtimizga qo'shayatgan hissasi tahsinga sazovar deya ayta olamiz.

So'nggi yillarda yurisprudensiya sohasida etuk va malakali mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishida hayotga tatbiq etilayotgan o'zgarish va yangilanishlar fonida iqtidorli yoshlarni tanlab olish va kasbga o'qitishning yangi, zamonaviy mexanizmlari joriy etilganini alohida ta'kidlash, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yoshlar orasida esa, qizlar ulushi ham oshib borayotgani e'tiborga molikdir. Bundan tashqari, sohada o'zining uzoq yillik mehnati bilan munosib o'rinni egallagan ayollar ham yo'q emas. Shundan kelib chiqqan holda, ikki avlod tajriba va salohiyatini, intilishini uyg'unlashtirish lozim.

Zero, xalqimiz tilida "Ayol dardini – ayol tushunadi" deganlaridek, yuridik sohada mehnat qiluvchi ayollar ish faoliyati qancha kengaysa, jamiyatimizda ham ko'plab oilaviy va xotin-qizlarimiz duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish yanada izchillik bilan amalga oshirilgan bo'lar edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston ayollari davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning oiladagi mavqei mustahkamlanayapti. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratayotir.

Shunga qaramasdan, yuridik sohada mehnat qiluvchi ayollar muammolari bo'yicha xalqaro va mahaliy darajada olib borilgan o'rganishlar natijalariga alohida e'tibor qaratish,

shuningdek, huquqshunos ayollarning malakasini oshirish masalasi ham takomillashtirilgan holda qayta ko‘rib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. PQ-4235-son 07.03.2019 “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4947-son—O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

3. https://www.minjust.uz/uz/library/own_publications/89276/

4. <https://strategy.uz/index.php?news=443>